

## ZAFAR DIYOR IJODIDA TABIAT TASVIRI

**Baxriddinova Yulduz Abror qizi**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bolalar adabiyotining namoyondasi, badiiy mahorat va iste'dod egasi bo'lgan Zafar Diyorning she'rlaridagi tabiat tasviri talqin qilingan. Xususan, tabiatni sevish, uni asrab avaylash kabi g'oyalar ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tabiat, bolalik, ijod, musaffo, boylik, suv.*

Barchamiz bilamizki bolalik bu eng musaffo, beg'ubor davrimizdir. Har bir inson o'z bolaligiga qaytishni istab yashaydi. Bolalik davri muammolarsiz, g'am-tashvishlarsiz bo'lgani uchun emas, balki bolalik davri o'zining quvonch-u shodliklarga to'laligi bilan, soddaligi, samimiyligi yuksak orzularga limmolimligi, unitilmas daqiqalarga boyligi bilan har bir insonni o'zining sehrli dunyosiga chorlaydi. Bolalar qalbi xuddi osmonda suzayotgan beg'ubor oppoq bulutga o'xshaydi. Sodda va musaffo. Bolalar dunyosiga bolalardek sof qalb egasi, borliqqa bolalar nigohida qaray oladigan insonlar kira oladi. Bolalarning jo'shqin kuychilaridan biri, iste'dodli shoir Zafar Diyordir. Shoir o'zining sodda va samimiy she'rlari bilan bolalarning nozik qalbiga kira oldi. Zafar Diyor o'z tuyg'ularini, borliqqa bo'lgan mehr-muhabbatini she'riga soladi.

Zafar Diyor she'rlarini o'qigan bola maroq bilan zavq oladi. Uning she'rlari nafaqat bolalar balki katta yoshdagilar uchun ham zavqlanish hissini bera oladi. Zafar Diyor bolalar psixologiyasini puxta o'zlashtirgan shoir desak ham adashmaymiz. U o'z she'rlari orqali bolalarning Vatanga, ona-tabiatga, borliqqa muhabbat hissini uyg'ota oladi. Misol uchun shoirning „Serquyosh o'lka“, „Bahor yaqin“, „Bahor“, „Bahor keldi“, „Oq bulutlar“ kabi she'rlarida ona tabiatimiz mohirlik bilan tasvirlab berilgan. Bolajonlar bu she'rlarni o'qiganda ona tabiatimizga bo'lgan muhabbat hissi uyog'onadi. Shoirning " Suv bilan suhbat" she'rida tabiat ne'matlaridan bo'lgan suv shu qadar chiroyli tasvirlanganki, o'qigan kishiga estetik zavq-shavq bag'ishlaydi. Suvni, uning oqishini bolaga juda chiroyli va jonli qilib tasvirlab beradi.

-Hoy sen, jayron toychamdek,

O'ynab-o'ynab oqqan suv.

Dalalarga bayramdek,

Guldan bezak taqqan suv.

Shu o'rinda yana bir narsani eslatib o'tish o'rinliki, she'rdagi ona-tabiatimizning bir bo'lagi bo'lgan obihayot manbayi suv shu qadar mohirlik bilan chiziladiki, har bir tasvir yosh kitobxon ko'z o'ngida ma'lum bir manzara hosil qiladi. Shoir suvni bolalarning nigohida jayron toychaga o'xshatadi. Suvning oqishi, borliqni yashillikka burkashi, dalalarni gullar bilan bezashi mahorat bilan yoritib berilgan.

Ushbu she'rda shoir bola va suv o'rtasidagi suhbatni jonli qilib tasvirlab bera oladi.

Quloq solgin so'zimga,  
Nega buncha shoshasan?  
Qayerdan bu kelishing,  
Qirg'oqlardan toshasan?

Ushbu misrada suvning o'z yo'lida shiddat bilan oqib borayotgani tasvirlanyapti. Suvning maqsadi dalalarni, bog'-u rog'larni yashnatish. Suv hamisha bobodehqonning xizmatida. Bobodehqonni kuttirib qo'ymaslik uchun manziliga shoshib oqib boraveradi. Bizga ma'lumki bobodehqon butun xalqimizni o'zining yetishtirgan noz-ne'matlari bilan ta'minlaydi. Bu mahsulotlarni iste'mol qilgan xalqimiz juda xursand bo'ladi. Bu ne'matlarni yetishtirish uchun suvning ahamiyati juda katta hisoblanadi. Suv obihayot manbai, tiriklik belgisidir. Agar suv bo'lmasa yaxshilik ham, tiriklik ham bo'lmaydi.

Yaxshi bola, toychangdek,  
O'ynab-kishnab kelishim,  
Qir-adirlar oralab  
Shamol kabi yelishim,-

Keyingi misrada suv "yaxshi bola" deya bolakayga odob bilan murojaat qilib, o'zining tog'-u toshlar, bog'-u rog'lar oralab o'z manzili tomon doimo ildam harakatda ekanligini takidlab o'tadi. Nima uchun suv aynan toychaga qiyoslanyapti. Barchamiz bilamizki endi tug'ilgan toychoq ipga bog'lanmagan holatda bo'lib, mutlaqo erkin bo'ladi. Toychoq juda sho'x bo'lib, har tomonga o'ynoqlab chopaveradi. Shuning uchun shoir suvni toychoqqa o'xshatadi. Suv ham jilvalanib bir joyda turolmaydi. Suv jildirab, tovlanib turli joylarga sayohat qiladi.

Ko'rasanmi hu o'sha  
Oppoq qorli tog'lardan,  
Shoshib oqib kelaman.  
Dalalardan bog'lardan.

Suvning shildirashi, zarrin quyosh nurida jilolanishi insonga naqadar huzur bag'ishlaydi. Shoir ushbu she'ri orqali bolalarga tabiatni sevishni, tabiatning ne'matlarini asrab avaylashni o'rgatadi. Qadimdan ota-bobolarimiz bizga doimo suvni qadrlashni, e'zozlashni va unga har qanday axlat chiqindilarni tashlamaslikni aytishgan. Tabiatimiz va undagi ne'matlarni asrashimiz kerakligini uqtirib kelganlar va bunga o'zlari ham rioya qilishganlar. Shuning uchun ham avvallari havo toza, tabiatimiz juda go'zal bo'lgan. Hozirda yildan yilga havo ifloslanib, yashil tabiatimiz yo'qolib bormoqda. Shunday ekan biz ham tabiatimizga befarq bo'lmasligimiz, tabiatimiz ne'mati bo'lgan suvni qadrlashimiz, asrashimiz, isrof qilmasligimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda Zafar Diyor ijodi orqali bolalarda tabiatga bo'lgan ijobiy hislatlarini shakllantirishimiz mumkin. Zeroki, tabiat bizning bebaho boyligimiz ekan, uni asrab avaylash bizning burchimizdir.

**ADABIYOTLAR:**

1. Kitob, mening do'stimsan „Kamalak “ nashriyoti Toshkent-2019.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -..O'qituvchi, 1994
3. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti- O'qituvchi, 2002.